

**AQSH TASHQI SIYOSATINI TASHKIL ETISH USUL VA STRATEGIYALAR  
TAJRIBALARINING O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI**

**Marufova Sevara Erkinovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

*Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati yo'nalishi magistri*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**


*Received: 28.01.2025*

*Revised: 29.01.2025*

*Accepted: 30.01.2025*

**KALIT SO'ZLAR:**

*Amerika Qo'shma Shtatlari, O'zbekiston, tashqi siyosat, "yumshoq kuch", "aqli kuch" siyosati*



*Ushbu maqolada Amerika Qo'shma Shtatlari tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini va ularni amalga oshirishda qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalarni o'r ganilgan holda O'zbekiston tashqi siyosatida qo'llash mumkin bo'lgan istiqbolli startegiyalar va yo'nalishlar misollar asosida yoritib berilgan.*

**KIRISH.** Bugungi kunda xalqaro munosabatlar va geosiyosiy vaziyat keskin o'zgarib, davlatlar o'z tashqi siyosatini shakllantirishda yangi strategiya va texnologiyalarga e'tibor qaratmoqda. AQSh global maydonda yetakchi davlat sifatida yangi usul va texnologiyalarni joriy etib, turli hududlarda o'z ta'sirini kuchaytirishga harakat qilmoqda. Tadqiqot mavzusining dolzarbli shundaki, zamonaviy tashqi siyosatni shakllantirishda "Yumshoq kuch", "Qattiq kuch", "Aqqli kuch"lardan tashqari sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, kiber xavfsizlik va raqamli diplomatiya kabi usullar faol qo'llanilmoqda. Bu esa O'zbekiston uchun ham muhim omil hisoblanadi, chunki davlatlar bilan muloqotda va manfaatlar muvozanatini saqlashda zamonaviy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, texnologiya asrida yashar ekanmiz zamon talabiga mos ravishda harakat qilmog'imiz shuni talab etadi. Ayniqsa davlat bilan o'zaro tashqi aloqalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston so'nggi yillarda o'z diplomatiya yo'nalishida raqamli vositalardan samarali foydalanishni kuchaytirmoqda. Masalan, mamlakatda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi [1] doirasida turli sohalarda, jumladan diplomatiyada raqamlashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bu tashabbuslar AQShning raqamli diplomatiya tajribasini o'rganish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Amerika raqamli platformalar orqali jahon hamjamiyati bilan muloqotda samarali vositalardan foydalanib, xalqaro maydonda o'z mavqeini mustahkamamoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston o'z milliy manfaatlarini ilgari surishda raqamli diplomatiyani kuchaytirishga intilmoqda, bu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Bugungi kunda xalqaro tizimdag'i o'zgarishlar va texnologik taraqqiyot davlatlarning tashqi siyosatida yangi yondashuvlar va strategiyalardan foydalanishni talab qilmoqda. AQSh tashqi siyosati ushbu o'zgarishlarga tezkor moslashib, o'zining global yetakchilik mavqeini saqlab qolish uchun innovatsion texnologiyalar va zamonaviy vositalarni faol joriy qilmoqda. Jumladan, smart power (aqli kuch) konsepsiyasidan foydalanish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda kiberxavfsizlik vositalarini qo'llash va raqamli diplomatiya yordamida global kommunikatsiya tarmog'ida samarali ishslash kabi strategiyalar AQSh tashqi siyosatining asosiy tamoyillariga aylangan.

**Adabiyotlar tahlili:** Amerika Qo'shma Shtatlari tashqi siyosati O'zbekistonning mintaqasi mamlakatlari bilan yaxshi qo'shnilik munosabatlarini rivojlantirish va kooperatsiyani faollashtirishga qaratilgan, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamashga xizmat qiladigan ochiq va konstruktiv tashqi siyosati va faol sa'y-harakatlarini har doim qo'llab-quvvatlab kelgan. O'zbekiston bilan Amerikaning strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish, ayniqsa, mintaqaviy va xalqaro tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi dolzarb masalalar bo'yicha ikki davlat rahbarlarining yondashuvlari mushtarakligi mamlakatlarimiz o'rtasidagi keng qamrovli munosabatlarni izhil rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda. O'tgan vaqt davomida O'zbekiston va AQSh davlatlari o'zaro anglashuv, hurmat va ikki tomonlama manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan strategik sheriklik ruhidagi munosabatlarni rivojlantirish yo'lida muhim qadamlarni qo'ydi.

O'zbekiston tashqi siyosatida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va global maydonda o'z mavqeini mustahkamash uchun "yumshoq kuch" vositalaridan samarali foydalanish zamon talabiga yalanmoqda. AQShning tashqi siyosatidagi "yumshoq kuch", "aqqli kuch" tajribasi O'zbekiston uchun qimmatli tajriba bo'lishi mumkin, chunki bu strategiya mamlakatning xalqaro nufuzini oshirish va boshqa davlatlar bilan yaqin aloqalarni o'rnatishda samarali

usul hisoblanadi. Amerika Qo'shma Shtatlari Markaziy Osiyo mintaqasida ushbu strategiyalarining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ta'lim va madaniy almashinuv dasturlarini qo'llaydi. Ushbu dasturlar orqali AQSh o'z madaniyatini targ'ib qiladi va mintaqasi davlatlari bilan yaqin aloqalarni mustahkamlaydi. Bu yo'nalishdagi asosiy dasturlar quyidagilardan iborat:

O'zbekiston AQSh kabi xalqaro talabalarga o'z universitetlarida grantlar taqdim etish va ta'lim almashinuv dasturlarini tashkil qilish orqali o'z ta'lim tizimini global miqyosda tanitishi va rivojlantirishi mumkin. Bu dasturlar O'zbekiston madaniyatini va qadriyatlarini xorijiy talabalar orasida keng targ'ib qilishda ham muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda O'zbekistondagi universitetlar va ilmiy markazlar chet ellik talabalarga ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun hamkorlik dasturlarini kengaytirmoqda. Masalan, Toshkentdagagi universitetlar va mintaqaviy oliy ta'lim muassasalari xalqaro ilmiy va ta'lim loyihibalarini amalga oshirib, o'zbek ta'lim tizimining xalqaro miqyosda tanilishiga hissa qo'shamoqda. Misol tariqasida ayta olamizki, O'zbekistonning o'z universitetlari orqali taqdim etilayotgan xalqaro grantlar va hamkorlik dasturlari, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan almashuv dasturlari orqali, mamlakatning ta'lim sohasidagi ta'sirini oshirishga qaratilgan. Bu dasturlar chet ellik talabalar va tadqiqotchilarini jalb qilish orqali O'zbekiston va boshqa davlatlar o'rtafiga ilmiy va madaniy aloqalarni mustahkamlaydi.

**Fulbright dasturi:** Markaziy Osiyolik talabalarga AQShda tahsil olish imkoniyatini taqdim etuvchi eng yirik xalqaro ta'lim dasturlaridan biri. Ushbu dastur orqali o'quvchilar Amerikaning ta'lim tizimi va madaniyati bilan tanishadi va o'z mamlakatlariga qaytgach, o'zaro hamkorlikni rivojlantirishda ishtirok etadi [2].

**English Access Micro Scholarship Program:** Ushbu dastur orqali Markaziy Osiyo davlatlaridagi o'quvchilarga ingliz tilini o'rganish va AQSh madaniyatini o'rganish imkoniyatlari taqdim etiladi. Bu esa o'z navbatida Amerika Qo'shma Shtatlari bilan til va madaniyat asosida aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi [3].

**Amerika markazlari va axborot resurs markazlari:** AQShning madaniy va axborot resurs markazlari mintaqasi davlatlarida faoliyat yuritadi va mahalliy aholi uchun mamlakat madaniyati, iqtisodiyoti va diplomatiyasi haqida bilimlarni taqdim etadi. O'zbekiston AQSh elchixonalarida amalga oshirilayotgan ingliz tili kurslari va madaniyat markazlari tajribasidan foydalaniib, o'z elchixonalarida o'zbek tili va madaniyatini o'rgatuvchi dasturlarni yo'lga qo'yishi mumkin. Bu orqali xalqaro maydonda O'zbekiston madaniy merosi va qadriyatlarini targ'ib qilish imkoniyati oshadi.

AQSh Markaziy Osiyoda o‘zining “aqqli” siyosatini faqat ta’lim va madaniyat orqali emas, balki diplomatik va iqtisodiy yordam dasturlari orqali ham amalga oshiradi. Bu dasturlar AQShning mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda mahalliy davlatlar bilan barqaror hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan:

**USAID (United States Agency for International Development)[4]:** USAID Markaziy Osiyoda qator rivojlanish loyihalari va iqtisodiy yordam dasturlarini amalga oshirmoqda. Bu dasturlar mintaqada iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, suv resurslarini boshqarish, ta’lim va qishloq xo‘jaligi sohalarida islohotlar o‘tkazishga qaratilgan.

**C5+1 diplomatik format:** 2015-yilda tashkil etilgan C5+1 formati orqali Amerika Qo‘shma Shtatlari va Markaziy Osiyo davlatlari (Qozog‘iston, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston va Qирғизистон) diplomatik hamkorlik va mintaqaviy xavfsizlik masalalari bo‘yicha birgalikda ishlamoqda. Bu hamkorlik doirasida Amerika mintaqada iqlim o‘zgarishi, xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot kabi sohalarda qo‘srimcha yordam ko‘rsatadi. “AQSh C5+1 diplomatik platformasini 7 yildan ko‘proq vaqt oldin ishga tushirgan, bu formatdagi hamkorlik mintaqa va undan tashqarida yanada samarali va barqaror yechimlarga olib keladi”, dedi Prays. TIV vakili Markaziy Osiyo hozirda o‘zining eng kuchli holatda ekanini, hukumatlar mintaqaviy va global muammolarni birgalikda hal qilayotganini va bu platforma har qachongidan ham dolzarbligini ta’kidladi [5]. “Iqtisodiy sohada AQSh mintaqaga katta sarmoya kiritishda va o‘z hamkorlari bilan ishlashda davom etmoqda. Markaziy Osiyo davlatlarining salohiyatini oshirish, yangi savdo yo‘llarini kengaytirish va mintaqada xususiy sektorni mustahkamlash uchun 25 million dollar ajratilgani bunga yaqqol misol bo‘la oladi” [6], dedi Prays.

Shuningdek, sheriklar bilan biznes va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, kasbiy almashinuv, ingliz tilini o‘rganish va o‘rgatish, sog‘liqni saqlash, yadro qurolini tarqatmaslik va xavfsizlikni ta’minlash, davlat salohiyatini oshirish kabi sohalarida ko‘plab mintaqaviy va ikki tomonlama dasturlar, mustaqil fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari, mintaqaviy savdo va energiya xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha hamkorlik qilinayotgani ta’kidlandi [7].

Madaniy almashinuv va media dasturlari orqali AQSh o‘z imidjini mustahkamlash va mintaqada o‘zining ijobjiy ta’sirini oshirishga intiladi. Bu jarayonda Amerika elchixonalari, xalqaro tashkilotlar va media platformalari yordamida mamlakat madaniyati, qadriyatlari va demokratik tamoyillari targ‘ib qilinadi:

**Amerika Ovozi:** “Voice of America” tarmog‘ining Markaziy Osiyo uchun tayyorlangan dasturlari orqali mintaqadagi aholi uchun AQSh siyosati va global voqealar haqida

ma'lumot beriladi. Ushbu dasturlar mintaqadagi turli til guruuhlariga moslashgan va mahalliy axborot ehtiyojlariga mos ravishda ishlab chiqilgan [8].

**Madaniy festivallar va ko'rgazmalar:** Amerika Qo'shma Shtatlari elchixonalari tomonidan uyuştiriladigan madaniy tadbirlar orqali AQSh san'ati, musiqasi va madaniyatini namoyish qilishga katta e'tibor qaratiladi. Bunday tadbirlar mahalliy aholi orasida AQSh madaniyatiga qiziqish uyg'otadi va ikki tomonlama madaniy almashinuvni rivojlantiradi.

O'zbekiston ham xalqaro miqyosda O'zbekiston san'ati, musiqasi va an'analari bilan tanishtirish uchun xalqaro madaniy tadbirlarni tashkil etib, o'z brendini yaratishi mumkin. O'zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosi mamlakatning "yumshoq kuch" siyosatidagi asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda davlat turizm va madaniyatni rivojlantirish orqali o'z madaniy ta'sirini kengaytirish va xalqaro jamoatchilikka taqdim etishga alohida e'tibor bermoqda. O'zbekiston hududida bugungi kunda turizm industriyasini modernizatsiya qilish va xorijiy sayyohlarni jalg qilish uchun katta ishlar olib borilmoqda. Bu borada Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlar, shuningdek, yangi turistik yo'nalishlar rivojlantirilmoqda. Turizm vizalarini soddalashtirish va xalqaro aviaaloqalarni kengaytirish orqali sayyoohlarni oqimini oshirishga intilish mamlakatning "yumshoq kuch" siyosatini kuchaytirishda muhim omil bo'ldi [9].

Jumladan, O'zbekiston xalqaro miqyosda o'z madaniyatini targ'ib qilish uchun ko'plab madaniy tadbirlar va festivallar uyuştirmoqda. Masalan, "Sharq taronalari" musiqa festivali, xalqaro qo'g'irchoq teatri festivali va boshqa madaniy tadbirlar orqali O'zbekiston xalqaro jamoatchilikka o'z madaniy merosini taqdim etmoqda. Bu tadbirlar mamlakatning ijobjiy imidjini mustahkamlash va xalqaro madaniy aloqalarni kengaytirishga xizmat qiladi [10].

O'zbekiston o'zining xalqaro televideniye va ijtimoiy media platformalarini kengaytirib, o'z madaniyati va milliy qadriyatlarini xorijiy jamoatchilikka taqdim etishi mumkin. Xususan, "O'zbekkino" mahsulotlarini xalqaro platformalarda namoyish qilish yoki ingliz tilida O'zbekiston haqida hujjatli filmlar yaratish orqali global auditoriyaga chiqish imkoniyati mavjud.

Amerika Qo'shma Shtatlari Markaziy Osiyo davlatlarida inson huquqlari va diniy erkinlik masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Uzoq ko'zlangan strategiyalar jamlanmasi orqali AQSh Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik qilishda demokratik tamoyillar va erkinlikni targ'ib qilishga intiladi. Bu borada bir nechta asosiy dasturlar amalga oshirilmoqda. Amerika Markaziy Osiyo bo'ylab mintaqadagi noyob madaniy yodgorliklar,

an'analar va arxeologik yodgorliklarni kelajak avlodlar uchun himoya qilish va saqlashga qaratilgan 70 dan ortiq loyihalarni moliyalashtirgan. Mazkur yo'nalihsda biznes va ta'lim sohasiga investitsiya jalb qilishga alohida urg'u berilgan. XXI asr uchun zarur bo'lgan texnik ustunalar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega ekanligi keltirilib o'tilgan. Qo'shma Shtatlar Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishganidan keyin ular bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan ilk davlatlardan bir edi. Amerika dunyoning boshqa yetakchi davlatlari Rossiya va Xitoy kabi mintaqada o'z manfaatlarini ega, shu bilan birga ushbu davlatlarning mintaqada gegemon bo'lmasligiga harakat qiladi.

**Xulosa:** AQShning Markaziy Osiyoga nisbatan "aqqli" siyosati uzoq muddatli diplomatik, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan strategik yondashuvdir. Ta'lim dasturlari, madaniy almashinuv va iqtisodiy yordam orqali mamlakat mintaqada o'zining ijobjiy imidjini yaratishga va mahalliy davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Shu orqali Amerika o'z ta'sir doirasini kengaytirish va mintaqada barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan maqsadlarini amalga oshiradi.

O'zbekiston tashqi siyosatini rivojlantirishda AQShning uzoq yillar davomida tajribadan o'tib kelayotgan strategiyasidan foydalanish mamlakat uchun ko'plab istiqbollarni ochadi. Ta'lim va madaniy dasturlar, iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik orqali O'zbekiston o'zining xalqaro imidjini mustahkamlash, mintaqadagi o'rnini mustahkamlash va global siyosatdagi ta'sirini oshirish imkoniyatiga ega. AQSh tajribasidan samarali foydalanish O'zbekistonning tashqi siyosatida zamonaviy va integratsiyalashgan yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni, 05.10.2020. PF-6079-son. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. Хорижлик талабалар учун Фулбрайт дастури. АҚШнинг Ўзбекистондаги элчихонаси. Rasmiy web-sayt. URL: <https://uz.usembassy.gov/uz/education-culture-uz/exchange-programs-uz/fulbright-foreign-student-program-uz/>
3. English Access Microscholarship Program. United States Department of State. Official web site. URL: <https://exchanges.state.gov/non-us/program/english-access-microscholarship-program>

4. United States Agency for International Development (USAID). About. URL: [https://www.iisd.org/funders/united-states-agency-internationaldevelopmentusaid?gad\\_source=1&gclid=Cj0KCQIAGdC6BhCgARIsAPWNWH3xt5jmUzlai0XOCyduPsjPgm8xLKd7CWuEhKZOYhRDzIQ4nae998aAhKkEALw\\_wcB](https://www.iisd.org/funders/united-states-agency-internationaldevelopmentusaid?gad_source=1&gclid=Cj0KCQIAGdC6BhCgARIsAPWNWH3xt5jmUzlai0XOCyduPsjPgm8xLKd7CWuEhKZOYhRDzIQ4nae998aAhKkEALw_wcB)
5. C5+1 Diplomatic Platform. Fact Sheet. USA, 2023. URL: <https://www.state.gov/c51-diplomatic-platform/>
6. Economic Resilience in Central Asia Initiative. Fact Sheet. USA, 2023. URL: <https://www.state.gov/economic-resilience-in-central-asia-initiative/>
7. Voice of america. Official web site. URL: <https://www.voanews.com>
8. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi. Rasmiy veb-sayti. URL: <https://uzbektourism.uz/>
9. “Sharq taronalari” XIII xalqaro musiqa festivali bo‘lib o‘tishi haqida PRESS-RELIZ. O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi. Rasmiy veb-sayt. URL: <https://gov.uz/oz/madaniyat/news/view/17986>
10. Ambassadors Fund for Cultural Preservation (AFCP). Bureau of Educational and Cultural Affairs. USA, 2017. URL: [https://en.wikipedia.org/wiki/Bureau\\_of\\_Educational\\_and\\_Cultural\\_Affairs](https://en.wikipedia.org/wiki/Bureau_of_Educational_and_Cultural_Affairs)